


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI

*60220300 – Tarix bakalavriat ta'lif yo'nališining*

*MALAKA TALABI*

Toshkent - 2024



**ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:**  
Mirzo Ulug’bek nomidagi O’zbekiston Milliy universiteti.

**TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O’zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining  
2024-yil “25” 06 dagi 248 - sonli buyrug‘i bilan.

**JORIY ETILGAN:**

O’zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo’nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O’zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilarini takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy meyoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O’zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O’zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

**MUNDARIJA**

T/r		bet
-----	--	-----

<b>1. Umumiy tavsifi .....</b>	<b>4</b>
1.1. Qo'llanish sohasi .....	4
1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.....	4
1.1.2. Malaka talabining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2. Kasbiy faoliyatlarning tavsifi.....	4
1.2.1. Kasbiy faoliyatning sohalari.....	4
1.2.2. Kasbiy faoliyatlarning obyektlari.....	4
1.2.3. Kasbiy faoliyatlarning turlari.....	5
1.2.4. Kasbiy vazifalar.....	5
<b>2. Kasbiy kompetensiyalarga qo'yiladigan talablar.....</b>	<b>6</b>
<b>3. Amaliyotga qo'yilgan talablar.....</b>	<b>8</b>
<b>4. Fanlar katalogining tuzilishi.....</b>	<b>8</b>
<b>Bibliografik ma'lumotlar.....</b>	<b>10</b>
<b>Kelishuv varag'i.....</b>	<b>11</b>

## **1. Umumiy tavsifi**

60220300 – Tarix ta'lif yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi, kechki, sirtqi va masofaviy ta'lif shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lif shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'lifda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

### **1.1.Qo'llanish sohasi**

#### **1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.**

Malaka talabi 60220300 – Tarix ta'lif yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lif muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilarini:**

mazkur ta'lif yo'nalish bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lif muassasasining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilar;

ta'lif yo'nalishining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lif muassasasining talabalari;

bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalar;

ta'lifni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta'lif muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

oliy ta'lif tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta'lif muassasalariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning otonalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

#### **1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.**

##### **1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari:**

Fan sohasidagi bakalavriat ta'lif yo'nalishi bo'lib, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional ta'lif muassasalarida ta'lif yo'nalishiga oid fanlarni o'qitish; O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari, davlat boshqaruvi organlari, umumiy o'rta, o'rta maxsus kasbiy ta'lifning davlat va nodavlat muassasalarida kompleks masalalar bilan bog'lik kasbiy sohalar majmuasini qamrab oladi.

##### **1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari:**

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarida;

umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional ta'lif muassasalarida;

ijtimoiy faoliyatlar doirasida barcha ishlab chiqarish ob'yektlarida;

turizmni rivojlantirishga yo'naltirilgan idora va tashkilotlarda;

tarix sohasiga doir nazariy muammolar, O'zbekiston va jahon xalqlari madaniyati tarixi, tarixiy obidalar, tarixiy manbalar, siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy jarayonlar, jamiyatning turli sohalari va ularning rivojalanish tarixi, millatlararo

etnik munosabatlar, moddiy va ma'naviy madaniyat, umumiy o'rta va o'rta-maxsus kasb-hunar ta'lim tizimida ta'lim tarbiya jarayoni va hokazo.

60220300 – Tarix ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavriat bitiruvchilari fan sohasidagi bakalavriat ta'lim yo'nalishini tamomlagandan so'ng, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalarida, maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida tarix fanlaridan zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda dars berish, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarida kompleks masalalarni yechish huquqiga ega bo'ladi.

### **1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:**

- *pedagogik (umumiy o'rta va o'rta maxsus, professional ta'lim tizimida);*
- *ilmiy-tadqiqot;*
- *tashkiliy-boshqaruv;*
- *ma'naviy-ma'rifiy faoliyat;.*

### **1.2.4. Kasbiy vazifalari.**

60220300 – Tarix ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob'yektlari va turlariga muvofiq, bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

**Pedagogik (umumiy o'rta va o'rta maxsus, professional ta'lim tizimida) faoliyatida:**

umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalarida mutaxassislikka oid tayyorgarlik yo'nalishida nazarda tutilgan o'quv fanlari bo'yicha nazariy va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish;

o'quv fanlarini o'qitish uslubiyotini egallash;

zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;

o'qitilayotgan fanlar bo'yicha darslarni o'tkazish uchun zarur bo'lgan o'quv-uslubiy hujjatlarni tuzish, tayyorlash va rasmiylashtirish;

o'qitilayotgan fan bo'yicha mashg'ulotlarni o'tkazish uchun o'qitishning texnik vositalaridan foydalanish;

mustaqil ta'lim va ijodiy izlanish natijasida o'qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi uslublar, vositalar va shakllar tizimida o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borish.

### **Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:**

kichik ilmiy xodim va yordamchi lavozimlarda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishi;

ilmiy-uslubiy va boshqa texnik ishlarini bajarish;

ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarish jamoasi tarkibida (ta'lim yo'nalishi xususiyatlariga mos ravishda) kasbiy faoliyat masalalarini yechish;

ilmiy-amaliy seminarlar, konferensiyalarni tashkil etish hamda ilmiy, tahliliy ommabop nashrlarda maqolalar bilan qatnashish;

ilmiy va ilmiy-uslubiy faoliyat turlari bo'yicha axborot-resurs kataloglarini tuzish va ulardan foydalanish;

mavzu (topshiriq) bo'yicha ilmiy-texnikaviy ma'lumotlarni yig'ish, ishlov berish, tahlil qilish va olingan malumotlarni tizimlashtirishda ishtirot etish;

tarix fanlariga oid ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish hamda ilg'or ilmiy-tadqiqot natijalarini va ishlanmalarni amaliyatga tatbiq etishda qatnashish bo'yicha faoliyat olib borish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

#### **Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:**

fuqarolik jamiyatining dolzarb masalalarini bilishi, O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo'lishi;

dunyoqarash bilan bog'liq falsafiy bilimlarga tizimli ega bo'lishi, mustaqil tahlil qila olishi, kasbiy faoliyatida ularni hisobga ola bilishi;

Vatan tarixini bilishi, ma'naviy milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o'z fikrini bayon qila olishi va ilmiy asoslay bilishi, milliy istiqlol g'oyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo'lishi;

xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid xujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda hayotda va o'z kasb faoliyatida foydalana bilishi;

axborot yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, o'z kasbiy faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;

tegishli bakalavriat yo'naliishi bo'yicha raqobotbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi;

yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;

sohaga oid innovatsiyalarni amaliyatga tatbiq qilishni tashkil etish;

ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish;

fikrlar har xil bo'lgan sharoitda boshqaruv qarorini qabul qilish;

nazorat qilish va amalga oshirilgan ishlarning natijalarini baholash;

bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishning natijalarini baholash;

mehnat jarayonida xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha metodika va tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish qobiliyatiga ega bo'lishi;

atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;

ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

#### **Ma'naviy-ma'rifiy faoliyatda:**

jamoaada ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish va boshqarish;

nodavlat va notijorat tashkilotlarda, xususiy tadbirkorlik sub'yektlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha menedjer sifatida faoliyat yuritish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

#### **2. Kasbiy kompetensiyalarga qo'yiladigan talablar**

davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;

mantiqiy fikrlashni rivojlantirish, to'g'ri xulosa chiqarish, ilmiy madaniyatni shakllantirish;

xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;

axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;

yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zarurati to'g'risida tassavvurga ega bo'lish;

tarix bilim sohasi uchun zarur bo'lgan fundamental fanlarni chuqur o'rghanishning ilmiy va nazariy asoslarini ta'minlashi;

bilimlarni yo'naltirishda muhim hisoblangan fundamental umumkasbiy bilimlarni, amaliyotdagi qobiliyat va yangiliklarni shakllantirish;

tarix ta'lim sohasi yo'nalishidagi ixtisoslik fanlarni o'rghanish va chuqur egallah uchun zarur bo'lgan fundamental umumkasbiy bilimlarni, amaliy ko'nikma va o'quvlarni shakllantirishi;

mutaxassislik fanlarni o'zlashtirishni ta'minlash, tarix fani sohalari bo'yicha ma'lumotlarga ega bo'lish va qayta ishlash metodlaridan zaruriy bilimga ega bo'lish;

tarix ta'lim yo'nalishida olingen ma'lumot va natijalarni qayta ishlash yo'riqlariga oid bilimlarni amalda qo'llash ko'nikmalarini ta'minlashi lozim.

tarix ta'lim sohasidagi talabalarining kasbiy faoliyatiga muvofiq butun jahon va mamlakatimizda sohadagi mavjud muammolar, erishilgan yutuqlar va sohani rivojlantirish istiqbollari haqida tassavur hosil qiliishi;

tarixiy yozma manbalar unumli foydalanish, ulardan tarixiy tadqiqotlarda foydalana olish bo'yicha muhim bilimlar olishni ta'minlash;

tarix ta'lim sohasidagi talabaning muayyan magistratura mutaxasisligi bo'yicha kelgusida ta'limni davom ettirishga ongli munosabatda bo'lishiga ko'maklashishi;

umumi pedagogika nazariyasi, o'qitish jarayoni, o'qitishning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalari; ta'limda ilmiylik, izchillik, muvofiqlik, ijodiylik va boshqa prinsiplar; ta'lim jarayonida motivatsiya; ta'lim metodlari, vositalari va texnologiyalar; umumi va xususiy metodlar; umumi pedagogik texnologiyalar; ta'lim tizimini boshqarish; pedagogik mahorat; umumi psixologiya: umumi psixologiyaning sohalari, yosh va pedagogik psixologiya: ta'limni va bilimlarni o'zlashtirishni boshqarish psixologiyasi; ta'lim va aqliy taraqqiyot; tarbiya metodlari va formalari; bo'lg'usi o'qituvchi shaxsi sifatlari; pedagogik qobiliyat: nazariya va amaliyot haqida bilim berishi borasida ilmiy bilimlar, amaliy mahorat va ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

### 3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Malaka amaliyoti – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalani shakllantirishga qaratiladi.

Ta'lim yo'naliishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

1. O'quv-tanishuv amaliyoti;
2. Bitiruv oldi amaliyoti;
3. Pedagogik amaliyot.

### 4. Fanlar katalogining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodи	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Fan o'tiladigan semestr
1.00		Majburiy fanlar	5160	172	
1.01	FAL1304	Falsafa	120	4	3
1.02	O'RT1204	O'zbek (rus) tilli	120	4	2
1.03	XT1104	Xorijiy til	120	4	1
1.04	DIN1204	Dinshunoslik	120	4	2
1.05	UPS1106	Umumiy psixologiya	180	6	1
1.06	UPE13408	Umumiy pedagogika	240	8	3,4
1.07	MAM1204	Mediasavodxonlik va axborot madaniyati	120	4	2
1.08	AR1105	Arxeologiya	150	5	1
1.09	TG1105	Tarixiy geografiya	150	5	1
1.10	UZ1128	O'zbekiston tarixi	840	28	1,2,3,4,5
1.11	JT1128	Jahon tarixi	840	28	1,2,3,4,5
1.12	ET1304	Etnologiya	120	4	2
1.13	TY1404	Tarbiya	120	4	4
1.14	RT1304	Raqamli tarix	150	5	3
1.15	MT1308	Manboshunoslik va tarixshunoslik	270	9	3,4
1.16	TM1505	Tarix o'qitish metodikasi	150	5	5
1.17	FT1304	Fan va texnika tarixi	120	4	4
1.18	SH1404	Sharq allomalarining ilmiy me'rosi	150	5	5
1.19	XD1604	Xalqaro munosabatlar va diplomatiya tarixi	120	4	6
1.20	DT1604	O'zbekiston davlatchiligi tarixi	150	5	6
1.21	EY1604	Eski o'zbek yozuvni	120	4	6
1.22	TU1605	Tarixiy o'lkashunoslik	150	5	6
1.23	MS1706	O'zbekistonning madaniyati va san'ati tarixi	150	5	7
1.24	JS1706	Jahon sivilizatsiyalari tarixi	150	5	7
1.25	UTT1704	Uzliksiz ta'limdagi tendensiyalar va zamonaliv yondashuvlar	120	4	7
1.26	ITG1704	Inklyuziv ta'lim. Gospital pedagogika	120	4	7
2.00		Tanlov fanlar	960	32	
2.00		Tanlov fanlar	960	32	5,6,7
<b>Kvalifikatsiya</b>		<b>Tarixchi, Tarix fani o'qituvchisi</b>			
1.18	SOAT1505	Sohaga oid arab tili (boshlang'ich daraja)	150	5	5
1.19	SOAT1604	Sohaga oid arab tili (boshlang'ich o'rta daraja)	120	4	6
1.20	IMST1605	Islom madaniyati va san'ati tarixi	150	5	6
1.21	TAST1604	Tasavvuf tarixi	120	4	6
1.22	IST1605	Islom tarixi (661-1258 yy.)	150	5	6
1.23	IST1705	Islom tarixi (XIII-XX asrlar)	150	5	7
1.24	MYTE1705	Me'moriy yodgorliklar tarixi va epigrafika	150	5	7
2.00		Tanlov fanlar	960	32	
2.00		Tanlov fanlar	960	32	5,6,7
<b>Kvalifikatsiya</b>		<b>Tarixchi-manboshunos. Tarix fani o'qituvchisi</b>			



1.17	O'MT1304	O'r ganilayotgan mintaqा (mamlakat) tarixi (qadimgi va ilk o'rta asrlar)	120	4	4
1.18	O'MT1405	O'r ganilayotgan mintaqা (mamlakat) tarixi (o'rta asrlar va yangi davr)	150	5	5
1.19	O'MT1604	O'r ganilayotgan mintaqа (mamlakat) tarixi (eng yangi davr)	120	4	6
1.20	O'MT1605	O'r ganilayotgan mintaqа (mamlakat) tarixi (globallashuv davri)	150	5	6
1.21	XShT1604	Xorijiy sharq tili (boshlang'ich daraja 1)	120	4	6
1.22	XShT1605	Xorijiy sharq tili (boshlang'ich daraja 2)	150	5	6
1.23	XShT1705	Xorijiy sharq tili (boshlang'ich o'rta daraja)	150	5	7
1.24	XShT1705	Xorijiy sharq tili (o'rta daraja 1)	150	5	7
2.00	Tanlov fanlar		960	32	
2.00	Tanlov fanlar		960	32	5,6,7
Kvalifikatsiya	<b>Tarixchi-sharqshunos, Tarix fani o'qituvchisi</b>				
		Jami	6120	204	
	Malaka amaliyoti		840	28	2,4,6,8
	BMI (Yakuniy davlat attestatsiyasi)		240	8	8
		Jami	1080	36	
		<b>HAMMASI</b>	<b>7200</b>	<b>240</b>	

\* OTM o'quv jarayonlarini tashkil etish hususiyatidan kelib chiqib, semestrlar uchun belgilangan umumiy kredit miqdorini muvofiglashtirgan holda fanlar o'tiladigan semestrlarni o'zgartirishi mumkin.

\*\* Tanlov fanlarda O'zbek (rus) tili fanidan keyin postrekvizit fani sifatida Davlat tilida ish yuritish fani kiritiladi.

\*\*\* Ta'lim yo'naliishlarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda malaka amaliyot ta'lim jarayonining tegishli qismida uzlusiz 15 hafta hajmida belgilanadi. 15 haftalik malaka amaliyoti ma'lum bir semestrغا to'liq hajmda qo'yilgan taqdirda fanlar katalogida ushbu semestrda o'quv fanlar mashg'ulotlari belgilanmasligi lozim (Masalan, malaka amaliyoti to'liq 6-semestrغا qo'yildi, bu holda fanlar katalogining 6-ustunida bironqa o'quv fani qatorida 6-semestr qayd etilmaydi. 6-semestr saqat "Malaka amaliyoti" qatorida ko'rsatiladi).

\*\*\*\* Mazkur ta'lim yo'naliishi o'quv rejasining tanlov fanlari qismiga "Kasbiy sohada xorijiy tillar" fani majburiy tarzda kiritiladi.



Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002-651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

---

**Tayanch so'zlar:**

Malaka talablari, kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat jabhasi, bakalavriatning asosiy o'quv rejasi va fan dasturlari, malaka, ko'nikma, o'quv davri, ishlab chiqarish, tashkiliy-boshqaruv faoliyati, loyihalash, ilmiy tadqiqot, tarbiya, arxeologiya, etnologiya, O'zbekiston tarixi, jahon tarixi, maxsus tarix fanlari, tarixiy geografiya, raqamli tarix, jahon sivilizatsiyalari tarixi, fan va texnika tarixi, sharq tillari, tarixiy o'lkashunoslik, O'zbekiston davlatchiligi tarixi, xalqaro munosabatlар va diplomatiya tarixi, sharq allomalarining ilmiy me'rosi, manbashunoslik va tarixshunoslik, O'zbekiston madaniyati va san'ati tarixi, tarix o'qitish metodikasi, bakalavriatning o'quv jarayoni, mustaqil ta'lim, malaka amaliyoti, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlari bloki, ta'lim jarayoni.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari  
hamda kadrlar iste'molchilari

**ISHLAB CHIQILGAN:**

O'zbekiston Milliy universiteti

Rektor  I.Madjidov

2024-yil «19 » 06



**KELISHILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni  
rivojlantirish tadqiqotlari markazi


Direktor  M.Boltabayev

2024-yil « 19 » 06

M.O.



O'zbekiston Respublikasi  
Maktabgacha va maktab ta'limi  
vazirligi huzuridagi  
Respublika ta'lim markazi

Direktor  Sh.Xudaykulov

2024-yil « 19 » 06



Nizomiy nomidagi Toshkent davlat  
pedagogika universiteti

Rektor  A.Kirgizbayev

2024-yil

M.O.



O'zbekiston xalqaro islom  
akademiyasi

Rektor  U.G'afurov

2024-yil « 19 » 06



Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti  
60220300 – Tarix bakalavriat ta'lim yo'naliishing bo'yicha malaka talablari va  
o'quv rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta'lim muassasalari va asosiy  
kadrlar iste'molchilari o'rtasida  
**KELISHUV DALOLATNOMASI**

Toshkent sh.

" " 2024-yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Respublika ta'lim markazi direktori Sh.Xudaykulov, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti rektori A.Kirgizbayev, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi rektori U.G'afurov, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti rektori I.Madjidov birlgilikda O'zbekiston Milliy universitetida ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriat ta'lim yo'naliishing malaka talablari va o'quv rejasini mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

60220300 – Tarix bakalavriat ta'lim yo'naliishing malaka talablari hamda o'quv rejasini ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-2909сон, 2017-yil 27-iyuldagagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151-сон, 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-сон Qarori hamda O'zR OTFIVning 2023-yil 9-iyundagi "Oliy ta'limning me'yoriy-uslubiy hujjatlarini ishlab chiqish jarayonini takomillashtirish to'g'risida"gi 259-sonli hamda O'zR OTFIVning 2024-yil 20-maydagagi "O'z DSt 3557:2021 "Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'naliislari va mutaxassisliklari klassifikatori" O'zbekiston Respublikasining Davlat standartiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 168-sonli buyruqlari, oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o'quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste'molchilari tomonidan qo'yilgan talablar ham inobatga olingan.

Bakalavriat ta'lim yo'naliishi bo'yicha malaka talablari o'quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o'quv rejani o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tawsiya etish mumkin.

**O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha  
va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi  
Respublika ta'lim markazi direktori**

Sh.Xudaykulov

**Nizomiy nomidagi Toshkent davlat  
pedagogika universiteti rektori**

A.Kirgizbayev

**O'zbekiston xalqaro islom  
akademiyasi rektori**

U.G'afurov

**Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy  
universiteti rektori**

I.Madjidov

**Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti**  
**Tarix fakultetida tayyorlangan 60220300 – Tarix bakalavr mutaxassisligi**  
**malaka talablariga**  
**TAQRIZ**

Jahon tajribasidan ma'lumki, har qanday davlatning barqarorligi ko'p jihatdan mamlakatda tinchlik totuvlikni ta'minlash, millatlararo munosabatlarda hamjihatlikni yo'lga qo'yishiga ham bog'liqdir. Keyingi vaqlarda, globallashib borayotgan dunyodagi turli nizolar yuz berayotgan bir sharoitda, bu muammo ayniqsa muhim o'ringa chiqib boryapti. Shu munosabat bilan millatlararo totuvlik har qanday ko'pmillatli davlat uchun hal qiluvchi omil sifatida ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligi qo'lga kiritilishi pedagogik texnologiyalarni o'rganish va yanada rivojlantirish borasida amalga oshirilgan ishlar salmog'i katta bo'ldi. Mustaqillik davridagi yangi milliy siyosat o'z ichiga raqobat bardosh kadrlarni tayyorlash va ularni ijtimoiy himoyalash kabi insonparvarlik tadbiralarini amalga oshirishni qamrab olgan. Ushbu oqilona siyosatni ta'llim-tarbiya nuqtai nazaridan o'rganish va uni yoshlar tarbiyasida tatbiq qilish pedagoglar zimmasidagi mas'uliyatli vazifalaridan biri hisoblanadi.


Globallashuv sharoitida yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning dolzarb jihatlari masalaning o'ziga xos xususiyatlarini yoshlar ongiga singdirishda muhim o'rinn tutadi. Globallashuv va etnik siyosat, uning nazariy asoslariga zamонавија yondashuv, bag'rikenglik umumbashariy qadriyat sifatida kabi ta'llim-tarbiyaga oid masalalar ochib berilgan. Shuningdek, yangi pedagogik texnologiyalariga iod g'olarini yanada keng targ'ib qilish uchun amalga oshirilish chora-tadbirlar bo'yicha tavsiyalarini bergen. Ta'llim-tarbiya jarayoni bilan shug'ullanuvchi pedagoglarga foydalanishlarini mumkin. Mazkur malaka talablari buyurtmachi tashkilot talablariga mos ravishda tayyorlangan.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda O'zMU tarix fakulteti tomonidan tayyorlangan 60220300 – Tarix bakalavr mutaxassisligi davlat ta'lif standarti malaka talabi sifatida qabul qilish mumkin.

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat  
pedagogika universiteti Tarix  
fakulteti dotsenti



etd., dots.F.Ismatulayev



**Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti**  
**Tarix fakultetida tayyorlangan 60220300 – Tarix bakalavr mutaxassisligi**  
**malaka talablariga**  
**TAQRIZ**

Istiqlol yillarining dastlabki kunlaridayoq ilm-fanga bo'lgan e'tiborni natijasida oliy ta'lif tizimida islohotlar, yangilanishlar amalga oshirildi. Ya'ni, ta'lif tizimining muhim bo'g'inalidan bo'lgan oliy ta'lif tizimi taraqqiyotini yangi bosqichga olib chiqish, yurtimizni jahoning rivojlangan mamlakatlari qatoridan o'rinni olishi uchun zamin yaratadi. Zero, oliy ta'lif tizimi o'quv jarayoni va o'quv-uslubiy faoliyatni modernizatsiyalash masalasi milliy taraqqiyot strategiyasi bilan bog'liq masala hisoblanib, bundan ko'zlangan maqsad jahon mehnat bozori uchun raqobatbardosh milliy kadrlarni tayyorlash, jamiyat taraqqiyotini sohaviy ta'minlashni milliy talab va ehtiyojlarni inobatga olgan holda takomillashtirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridandir.

Tarix fani sohasi yutuqlarini yanada rivojlantirishga xizmat qiluvchi, globallashuv sharoitida o'ziga xoslikni saqlagan va jahon ta'lif tizimiga integrallashtirish tamoyillariga amal qilishda insoniyat jamiyat tarixiy taraqqiyot bosqichlarini o'zlashtirish muhim o'rinn tutadi. Taqrizga taqdim etilgan 60220300 – Tarix bakalavr mutaxassisligi malaka talablarida aks etgan bo'lib, unda shuningdek O'zbekiston Respublikasining "Ta'lif to'g'risida"gi Qonuni va O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" talablariga asoslangan holda uzluksiz ta'lifni vazifalaridan ta'lif, fan va ishlab chiqarishni uzviy bog'liqligini ham hisobga olgan holda tayyorlangan.

Malaka talablari buyurtmachilarning talablariga to'liq javob beradi. U davlatchilik, davlat boshqaruvidagi ichki va tashqi siyosat masalalari bo'yicha davlat va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladigan siyosiy institutlar, nodavlat, jamoat muassasalarida mahalliy boshqaruv, nodavlat tashkilotlari boshqaruvi organlari, ilmiy-tadqiqot va boshqarish ishlarini olib borish, davlat va boshqaruv, nodavlat tashkilotlar boshqaruvi bo'yicha olib boriladigan ilmiy tadqiqot ishlarida qatnasha

oladigan, umuman yetuk mutaxassis kadrlarni zaruriy bilim egallashlarini ta'minlaydi.

Shularni hisobga olib, 60220300 – Tarix bakalavr mutaxassisligi davlat ta'lim standartini malaka talabi sifatida qabul qilish va uni tasdiq uchun tavsiya qilish mumkin.

O'zbekiston xalqaro islom  
akademiyasi kafedra mudiri

*N.Muxamedov*

t.f.d. N.Muxamedov



**Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida  
ishlab chiqilgan 60220300 – Tarix bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha oliy  
ma’lumotli bakalavrilar tayyorlashning tayyorgarlik darajasi va zaruriy  
bilimlar mazmuniga qo‘yiladigan talablar yangilangan  
malaka talablari va o‘quv rejasiga**

**T A Q R I Z**

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘pisida” gi Qonunini ijro etish, ta’lim mazmunini tubdan isloh qilish, tayyorlanayotgan kadrlar sifatining pespublikada amalga oshirilayotgan chuqur iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar talablapiga, shuningdek ta’lim, fan, texnika va texnologiyalar pivojlanishining ilg‘or jahon darajasiga muvosfiqligini ta’minalash bevosita malaka talablarining mazmuniga bog‘liq.

*60220300 – Tarix bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malaka talablari va o‘quv rejasি O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 5847-sen farmoni, 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minalash bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-senli qarori xamda O‘zR OTFIVning 2018 yil 6 iyundagi “Oliy ta’lim yo‘nalishlarining malaka talablari va o‘quv rejalarini ishlab chiqish to‘g‘risida”gi №87-02-1322-senli buyrug‘i, oliy ta’lim sohasini tartibga soluvchi boshqa normativ huquqiy hujjalarga xamda horij tajribalariga muvofiq ishlab chiqilgan.*

Bakalavriat ta’lim yo‘nalishi o‘quv rejasи kredit-modul tizimi asosida shakllantirilgan va kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablarga muvofiq, talabalar majburiy va tanlov fanlarini o‘zlashtirishi, amaliyotlarni o‘tishi va natijada kasbiy faoliyatida zarur bilim, ko‘nikma va malaka kompetensiyalarini egallashini ta’minlovchi mazmunda ishlab chiqilgan.

*60220300 – Tarix bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha tuzilgan yangilangan malaka talablari va o‘quv rejasи xorij tajribasi asosida uyg‘unlashtirilgan, ta’lim oluvchilapda chuqup bilim, mustaqil fikrlash, yuksak kasb-kop malakasi shakllanishini ta’minalashga alohida e’tibor qaratilgan, bakalavrarning fanlami o‘zlashtirish jarayonida tajriba, ko‘nikmalar xamda tasavvurga ega bo‘lish, qo‘yilgan talablarni bilishi va ulardan samarali foydalana olish kabilalar to‘g‘ri ko‘rsatilgan. Malaka talablari va o‘quv rejasida fan oldida turgan dolzarb muammolarni o‘rganish va ularni ijobjiy yechimini izlab topishda zamonaviy uslub va texnologiyalarga, dala va laboratoriya amaliyotlariga, seminar mashg‘ulotlariga, mustaqil bilim olish hamda olingan ma’lumotlarni tahlil kilishga keng o‘rin berilgan.*

Malaka talablarini ishlab chiqishda ta'limni demokratlashtirish, insonparvarlashtirish, globallashuv sharoitida o'ziga xoslikni saqlash va jahon ta'lim makoniga integrallashtirish tamoyilla-rida amal qilingan. Malaka talablaridagi bloklar bo'yicha fanlar tarkibi, ularning o'zaro nisbatlari bitiruvchilarning tanlagan mutaxassisligi bo'yicha olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olish ko'nikmasini kuchaytirish nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqilgan. Fanlar uchun belgilangan vaqt byudjetining nazariy, amaliy, tajriba, mustaqil ishlar uchun taqsimoti bitiruvchining nazariy bilimlarini mustahkamlash va ularni amaliyotda muvaffaqiyat bilan qo'llash ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

Malaka talablari va o'quv rejasini ishlab chiqishda turdosh oliy ta'lim muassasalaining talab va takliflari inobatga olingan.

Xulosa qilib aytganda, 60220300 – *Tarix* bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrular tayyorlash uchun tuzilgan yangilangan malaka talablari va o'quv rejasi oliy ta'lim o'quv jarayonini jahon andozalari darajasiga yetkazishga yo'naltirilgan bo'lib, har tomonlama yetuk mutaxassislar tayyorlashga oid masalalarni o'z ichiga olgan va sifatli tuzilgan, O'zbekiston Respublikasi davlat standartlash tizimi qoidalapi talablapini qoniqtiradi xamda uni tasdiqlashni taklif qilaman.

Urganch davlat universiteti

"Tarix" kafedrasi mudiri

t.f.d., prof. U.I.Abdullayev

